



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



**“QUTADG‘U BILIG”DAGI SOMATIK FRAZEMALARNING
HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIGA MUNOSABATI
CONNECTION OF SOMATIC PHRASES IN “KUTADGU BILIG”
WITH THE MODERN UZBEK LITERARY LANGUAGE**

DOI:10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/VWUZ9510

Abdullayeva Vazira Quronovna
Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi
Abvazira12@gmail.com

***Annotatsiya.** Maqolada tarixiy frazemalarning xalq dunyoqarashi, urf-odat, an‘analari, tafakkur xususiyatlarini, shuningdek, muallif dunyoqarashini aks ettirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritilgan. Mumtoz badiiy matnlar orasida “Qutadg‘u bilig”ning alohida qiymatga ega ekanligi, har bir bayti hikmatga boyligi sabab “pandnoma” deb nom olgani va o‘z davridayoq mashhur bo‘lgani misollar orqali ko‘rsatib o‘tilgan. Tarixiy frazemalarning semantik-uslubiy xususiyatlari “Qutadg‘u bilig” matnidagi somatik frazemalar tahlili orqali ochib berilgan. Asar matnidagi somatik frazemalarning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati belgilangan. Frazemalar hozirgi o‘zbek tilida fonetik farq bilan qo‘llanadigan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida bir komponenti bilan farqlanadigan, hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanmaydigan frazemalar kabi guruhlarga ajratib, tahlil qilingan. Pandnoma matnidagi frazemalar axloqiy-tarbiyaviy, ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: frazema, tarixiy frazema, somatik frazemalar, frazemalar komponenti, dunyo tillari, o‘zbek tili tarixiy taraqqiyoti, pandnoma, yozma yodgorliklar.

***Annotation.** The article examines the role of historical phraseology in reflecting the worldview of the people, customs, traditions, peculiarities of thinking, as well as the worldview of the author. The examples show that “Kutadgu Bilig” occupies a special place among classical literary texts, that each verse is rich in wisdom, that it was called “pandnoma” and was famous in its time. The semantic and stylistic features of historical phraseology are revealed through the analysis of somatic phraseology in the text “Kutadgu bilig”. The connection between somatic phraseological units in the text of the work and the modern Uzbek literary language is determined. Phraseologisms are divided into groups and analyzed: those used in the modern Uzbek language with phonetic differences, those differing in one component in the modern Uzbek literary language and those not used in the modern Uzbek language. The analysis is based on the fact that phraseological units in the text of the pandnoma have moral, educational, spiritual and enlightening significance.*



Keywords: *phraseme, historical phraseology, somatic phraseological units, phraseological component, languages of the world, historical development of the Uzbek language, pandnoma, written monuments.*

O'zbek tili tarixan boy leksik qatlamga ega. Tildagi har bir leksik xususiyatlar albatta badiiy asarning mazmun va mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan

“O'zbek tili o'zbek xalqi, millatining mavjudlik sharti, birlamchi milliy-madaniy ramzidir. Kishilik jamiyati taraqqiyotida dunyo tillari turli darajada va o'ziga xos yo'nalishlarda rivojlanib kelmoqda. Hozirgi kunda dunyoda 7 mingdan ortiq til mavjudligi qayd etiladi. Mazkur tillarning jamiyatdagi funksiyasi, muloqotni ta'minlash vazifasi bir xil emas” [Xolmanova, 2025, 289]. O'zbek tili ijtimoiy taraqqiyot bilan uyg'un ravishda rivojlanib kelmoqda. Bu tilning tarixiy taraqqiyotiga boshqa xalqlarning, tillarning ta'siri o'quv qo'llanmalari, darsliklar, monografiyalarda o'z ifodasini topgan.

O'zbek tili xalqning necha yuz minglik tarixini o'zida ifoda etadi, davriy o'zgarishlarni, ijtimoiy- iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarni saqlab qolgan. “O'zbek xalqining tafakkuri, aqliy salohiyati tilida o'z ifodasini topgan [Xolmanova, 2025, 289].

XI asrlarda “Qutadg'u bilig” asari turkiy tildagi ilk badiiy doston sifatida shuhrat topgan. Ushbu asar orqali so'z tanlash va qo'llash, lashkarboshining fazilatlarini, qo'shinni boshqarishdagi e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan sifatlar badiiy usulda ta'sirchan ifoda etilgan. Asar o'z davrida va undan keyin ham “pandnoma asar” sifatida mashhur bo'lgan.

Tilshunoslikda “Qutadg'u bilig” asarining badiiy xususiyatlari [To'xliyev, 2004], leksik boyligi [Xolmuradova, 2019] kabi tadqiqotlarda tahlil etilgan.

“Qutadg'u bilig” asarida ketirilgan baytlarni har biri yuksak mahorat bilan ifodalangan. Har bir bayt kichik asar va hayotiy tajribalarga asoslangan hikmat hisoblanadi. Masalan,

*Til arslan turur kör eşikdä jatur aja evlüg **arsiq başiñni jejur***/ Til misoli qafasda yotgan arslon kabidir, ey uy (qafas) egasi, u makkor boshingni yeydi (QBN 13a) [Dadaboyev, 2018]. Bu hikmat muloqot odobi, ma'lumotni, fikrni yetkazish uslubi, nutq xususiyatlarini aks ettiradi. *Arsiq* “hiylakor, makkor, ayyor” ma'nosidagi so'z bo'lib, bu birlik orqali tilning nazorat qilinmasa, kishining boshiga balo yog'dirishiga ishora qilingan.

Uvut ol etär qilqı artaq kişig / Fe'li yaramas odamni uyat-andisha tuzatadi. *Artaq* – “**buzuq, yomon, yaramas, ofat, balo**” ma'nolaridagi so'z bo'lib, inson tarbiyasida muhim o'rin tutishi ko'rsatib berilgan.

Biliglig kişilär bişiy jer aşıy / Bilimli kishilar ovqatni pishganidan keyin yeydi (QBN 361) [Dadaboyev, 2018]. *Aş I* “**osh, ozuqa, taom**” ma'nolarini ifodalaydi.

Jüräksiz kişilär èerig artatur / Qo'rqqoq kishilar lashkarni buzadilar. *Artat*= “**buzmoq, xarob etmoq, aynitmoq, ifloslantirmoq**” ma'nosidagi salbiy bo'yoqdor



so'z bo'lib, shaxs fe'l-atvoriga doir illatlarning natijasini ko'rsatib kelgan. Asardagi bunday hikmatomuz misralar mazmuni hozirgi kun uchun ham ahamiyatini yo'qotmagan. "Qutadg'u bilig" asarida hikmatli so'zlarni ta'sirchan tarzda bayon qilinishida muallif keng turg'un birikmalardan qo'llanishga erishgan.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida tarixiy frazemalar tahliliga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu mavzudagi tadqiqotlarning muhimligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Tarixiy frazemalarni o'rganish barqaror birikmalarning tadrijiy takomilini yoritishga xizmat qiladi.

2. Barqaror birikmalar xalq madaniyati, qarashlari, urf-odatlarini yaqqol aks etiruvchi til birliklari hisoblanadi. Muayyan xalqning voqealikka munosabati, shaxslarga, narsa-hodisalarga bergan bahosi davrlar osha o'zgarib borishini namoyon etadi.

3. Tarixiy frazemalar tarkibida ma'lum davrlarga tarixiy, arxaik xos so'zlarning saqlanib qolishi bu birliklarning to'plash va yetkazish funksiyasini takomillashgan ko'rinishda amalga oshirishini ko'rsatadi.

Asar badiiyatini ta'minlashda frazemalarning alohida o'rni mavjud. Pandnomada 270 dan ortiq frazema qo'llangan. Ushbu barqaror birikmalar tuzilishi, komponentlari tarkibi jihatidan farq qiladi.

"Qutadg'u bilig"dagi frazemalar o'zbek xalqining tafakkuri, aql-idrokini ko'rsatish bilan bir qatorda Yusuf Xos Hojibning mutafakkirlik salohiyatini ham namoyon etadi.

"Qutadg'u bilig"dagi bir qancha barqaror birikmalar somatik frazemalar bo'lib, turli ma'nolarni darajalab ko'rsatishga xizmat qilgan. Mazkur barqaror birikmalarning barchasi hozirgi o'zbek adabiy tilida o'z holicha qo'llanmaydi. Buni quyidagi ayrim frazemalarning tahlili orqali kuzatamiz.

1. Hozirgi o'zbek tilida fonetik farq bilan qo'llanadigan frazemalar.

2. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bir komponenti bilan farqlanadigan frazemalar.

3. Hozirgi o'zbek tilida qo'llanmaydigan frazemalar.

"Qutadg'u bilig" dagi frazemalarning ba'zilari hozirgi o'zbek tilida qo'llanadi. Lekin ushbu barqaror birikmalar fonetik o'zgarishga uchragan. Oradan o'tgan o'n asr aynan qo'llanadigan frazemalarning fonetik o'zgarishga uchrashiga sabab bo'lgan. Shuningdek, o'zbek tili tarixiy taraqqiyot bosqichlari davomida har bir davr uchun xos bo'lgan tovush xususiyatlariga ham ega.

"Tashvish bo'lmoq", "mashaqqat bo'lmoq" ma'nosida *baš aãriã bolur frazeması qo'llangan: Bezüg ištã teñsiz baš aãriã bolur, baš aãriã kötürmäsã beglik qalur* /Buyuk ishda beqiyos mashaqqat bo'ladi, mashaqqatni tortmasa beglik tanazzulga yuz tutadi (QBN 109a) [Dadaboyev, 2018]. Hozirgi o'zbek tilida *bosh og'rig'i bo'lmoq* frazeması ishlatiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida bir komponenti bilan farqlanadigan frazemalar mavjud. "Qutadg'u bilig" asaridagi barqaror birikmalarning ayrimlari o'zbek



adabiy tilidan bir komponentiga ko'ra farqlanadi. Masalan, *ajada tut= kaftda tutmoq, ardoqlamoq*:

Jana kelgil emdi jigitlik menä sen, ajada tutajin aäi çuz töšättim / Ey yigitlik, menga qaytadan kelgin, ipak, shohilar to'shab qo'rganman, (seni) qo'llarimda ko'tarib ardoqlayin (QBK 3868). *Aja* I (turkiy) kaft, qo'l; *ajada tut=* Q. Karimov tomonidan e'lon qilingan nashrda "kaftda ko'tarmo'q" tarzida tabdil qilingan. Bu frazemani muallif yoshlik davriga nisbatan qo'llagan. Bolalikni, yoshlikni qo'msashning obrazli ifodasini yaratgan. Frazema tarkibidagi *aja* komponenti hozirgi o'zbek adabiy tilida **kaft, qo'l** so'zlariga almashgan.

Qadimgi turkiy tilga xos *aja* so'zi keyinchalik fors-tojikcha **kaft** so'ziga almashgan. *Ajada tut= / kaftda tutmoq / ardoqlamoq* nihoyat darajada e'zozlamoq tushunchasini ifodalaydi. Yusuf Xos Hojibda inson umrining beg'ubor ilk bosqichiga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, hozirgi kunda shaxslarga, onaga, umr yo'ldoshiga, singilga nisbatan ishlatiladi. Ushbu frazema xalq maqolida o'ziga xos tarzda qo'llangan holda saqlanib qolgan: **Onaningni boshingda tutsang, singling kaftingda tut**. Bu maqoldagi **kaftingda tut** barqaror birikmasi aslida **kifingda tut** tarzida bo'lishi kerak. **Kift** "yelka" ma'nosidagi so'z bo'lib, singilning shu a'zoda tutilishi mantiqqa mos bo'ladi. Agar **kaftda tutmoq** frazemasini ishlatilsa, mantiqqa zid holat kuzatiladi: **kaftda tutilgan inson qo'l ko'tarilganda** boshda tutilgan insondan yuqori bo'lishi mumkin.

Baş esän bolsa frazemasini inson umrini, salomatligini ifodalab kelgan: **Etüz baş esän bolsa arzu jayyuq** / Tana va bosh omon bo'lsa, orzular amalga oshadi. (QBK 5215) [Dadaboyev, 2018]. *Arzu* I (forscha) orzu, tilak, istak, niyat. **Baş esän bolsa** frazemasini hozirgi o'zbek adabiy tilida **bir komponenti** bilan farqlangan ko'rinishda qo'llanadi: *bosh omon bo'lsa*.

Shaxsning psixologik holati, qabul qilish, tushunish, anglash darajasi bilan aloqador tushunchani bildiruvchi **jitig qil közüg** frazemasini qo'llangan: *Bü dört neç üzä sözlädim men sözüg, oqıza açilyaj jitig qil közüg* / Bu to'rt narsa uzra so'zladim so'zim, o'qilsa ma'nosi ochilgay, e'tiborli bo'l (QBH 2213) [Dadaboyev, 2018]. **Jitig qil közüg** frazemasini so'zma-so'z "**ko'zni katta yoki yirik ochmoq**" ma'nosiga teng keladi, e'tiborli bo'lmoq qo'shma fe'li ma'nosiga teng keladi.

"Qutadg'u bilig"da shaxsning aqliy qobiliyati, intellektual salohiyati **menäsi tolu** frazemasini orqali ifodalangan: *Ali erdi munda basaqi talu kür ersig yüraklig menäsi tolu* / Undan keyingi sara (to'rtinchi chahoryor) Ali edi, botir, mard, shijoatli, aqli raso edi (QBN 9b) [Dadaboyev, 2018]. Ali (arabcha) Hazrat Ali, Muhammad payg'ambar(s.a.v)ning jiyani va kuyovi, to'rt chahoryorlardan biri, to'rtinchi xalifaning ismi bo'lib, muallif tomonidan aqliy qobiliyati yuksak darajadagi shaxs sifatida tavsiflangan. Bu frazema ham hozirgi kunda qo'llanmaydi. "**Miyasi to'liq**" degan ma'noni anglatadi, **aqli raso** frazemasining ma'nosiga teng keladi.

Açuq tut jüzününi jaruq tut alin / Chehrangni ochiq, manglayingni yorug' tut (QBN 3763) [Dadaboyev, 2018]. Ushbu baytda ikkita frazema qo'llangan,



sodda qilib aytganda, bu misra frazemalar tizmasidan iborat. *A'çuq tut jüzüñ jaruq – yuzni ochiq tutmoq* frazemasini hozirgi o'zbek adabiy tilida ham ishlatiladi. *A'çuq tut alin* – manglayni ochiq tutmoq shaklda qo'llanmaydi. Frazemani yuzaga keltirgan ochiq+tut+ leksemalari hozirgi o'zbek adabiy tilida mustaqil ishlatiladi. *Alin* (turkiy) "*manglay*", "*pehona*" so'zlari qo'llanmaydi.

Insonlar o'rtasidagi munosabatning paralingvistik ifodasini ko'rsatuvchi *ališti elig* frazemasini uchraydi:

Salam qildi ötrü ališti elig, turup evkä kirdi bu iki silik / Avval qo'l olishib salomlashishdi, keyin turib bu ikki pokdomon uyga kirdilar (QBN 3624) [Dadaboyev, 2018]. *Ališti elig* I (turkiy) qo'l olishmoq, qo'l berib so'rashmoq. Bu frazema ham komponenti o'zgartirilgan holda ishlatiladi: *ališti elig* – qo'l olishib.

Elig so'zi "qo'l" ma'nosini anglatadi, hozirgi kunda iste'moldan chiqib, arxaik birlikka aylangan.

Shaxs fe'l-atfori, faoliyatini sifatlovchi *keñ elig* frazemasini qo'llangan: *Tözün erdi alçaq qilinči silik, uvutluy bayirsaq aqi keñ elig* / (Payg'ambar (s.a.v)) olijanob, muloyimtabiat, qiliqlari manzur, andishali, mehribon, sahovatli, qo'li ochiq edi (QBN 161) [Dadaboyev, 2018]. *Keñ elig frazemasini uvutluy (andishali), bayirsaq (mehribon), aqi (saxiy)* so'zlaridan keyin kelib, shu sifatni yuqori darajada oshirishga xizmat qilgan. Bu frazema hozirgi o'zbek tilidagi *qo'li ochiq* barqaror birikmasiga teng keladi. *Alçaq* "(turkiy) kamtar, muloyim, yumshoq tabiatli, xushtabiat" ma'nolarini bildirib kelgan.

Ko'ngil timsoli mumtoz adabiyotda ham, zamonaviy badiiy matnlarda ham keng qo'llanadi. Aynan inson tana a'zosini ifodalama-da, "*yurak*", "*dil*", "*qalb*" ma'nolariga yaqin tushunchani anglatadi. **Ko'ngil** ko'proq insonning ruhiyati bilan aloqador. Hozirgi o'zbek tilida qo'llanadigan, ayrimlari "Qutadg'u bilig" matnida ham *uchragan ko'ngli ko'tarilmoq, ko'ngli og'rinoq, ko'ngli ranjimoq, ko'ngli ketmoq, ko'ngli tushmoq, ko'ngli qolmoq* kabi frazemalarda isnon tafakkuri ko'ngilni real a'zo sifatida idrok etadi.

"Qutadg'u bilig" asarida "ko'ngil" komponentli barqaror birikmalarni *somatik komponentli* frazemalar sifatida olingan.

Munuqi bu sözkä tanuq keldi söz oqiyl anı sen aja köñli tuz / Mana, ushbu so'zga quyidagi so'zlar dalil bo'ladi, sen ularni o'qigin, eu ko'ngli to'g'ri (QBN 67a) [Dadaboyev, 2018]. *Aja II (turkiy) ey, da'vat, xitob* ma'nolarini ifodalovchi undov.

Ushbu baytdagi shaxs fe'l-atforini bildiruvchi *köñli tuz* frazemasini "*kongli tog'ri*" shaklida ishlatiladi. Mazkur frazemaning ma'nosi hozirgi o'zbek tilida, asosan, *oqko'ngil, ochiq ko'ngil* barqaror birikmalari bilan ifodalanadi. *Oqko'ngil* birligi ham aslida *oq+ko'ngil* tarzida ikki komponentdan iborat frazema hisoblangan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shib yozilishi natijasida leksemaga aylangan. Leksikalizatsiya (birikmalarning sodda so'zga aylanishi) jarayoni yuz bergan. Yusuf Xos Hojib qo'llagan frazema tarkibidagi "*to'g'ri*" ma'nosidagi *tuz* so'zi hozirgi kunda ishlatilmaydi. Uning omonimlari qo'llanadi.

Insonning ruhiy holatini bildiruvchi *añrır köñül* frazemasini qo'llangan:



İrīg sözlämägil kişikä tilin, irīg sözkä aārır köñül keč bilin / Odamlarga tilda dag'al so'zlamagin, dag'al so'zdan dil uzoq og'rib qoladi (QBN 126b) [Dadaboyev, 2018]. Frazema hozirgi o'zbek tilida "ko'ngli og'rimoq" ma'nosiga teng keladi. Bu ma'no hozirgi kunda **dili og'rimoq** frazemasini bilan ifodalanadi.

Shaxs ruhiy holati bilan aloqador tushunchani ifodalovchi *köñül aārıttur* frazemasini qo'llangan: *Tüpi jel turur söz köñül aārıttur* / So'z bo'ronli izg'irin kabidir, dilni (teshib o'tib) zirqiratadi (QBK 2546) [Dadaboyev, 2018]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *kongil og'ritmoq* barqaror birikmasini o'rnida dili og'rimoq/dilini og'ritmoq frazemalari ishlatiladi.

"Qutadg'u bilig" dagi **közi toq, köñli toq** frazemalari shaxsning ma'naviy fazilatlarini ta'sirchan aks ettirgan:

Bütün çin baäirsaq közi köñli toq, köni bolsa qılqı misal atäu oq / İshonchli, chin, sadoqatli, ko'zi, ko'ngli to'q, fe'li misoli otiladigan o'q kabi to'g'ri bo'lsa (QBN 107b). [Dadaboyev, 2018]. **At= I** (turkiy) "**o'q otmoq**" ma'nosini bildiradi.

"Qutadg'u bilig" dagi ayrim frazemalar hozirgi o'zbek adabiy tilida ishlatilmaydi. Masalan, asarda qo'llangan *tuzi etmäki keñ-* frazemasini "**non-tuzi mo'l**", "**dasturxonni yoziqli**", "**ochiq qo'l**" ma'nolarini ifodalaydi:

Aqi alp atim bolsa alçaq köñül, tuzi etmäki keñ ne qılqı amul / Saxovatli, shijoatli, muloyim tabiatli, non-tuzi mo'l (dasturxonni yoziqli), vazmin fe'lli bo'lsa (QBN 1721) [Dadaboyev, 2018]. Alp (turkiy) bahodir, pahlavon, botir. **Alp atim** – botir, mergan, shijoatli, jasur. Bu frazemaning ma'nosi hozirgi o'zbek adabiy tilida **ochiq qo'l** barqaror birikmasini bilan ifodalanadi. Yuqoridagi baytda keltirilgan, shaxs fe'l-atvori, xarakter-xususiyatini bildiruvchi **alçaq köñül- ham "samimiy", "oqko'ngil"** degan ma'nolarni anglatadi.

Hozirgi o'zbek tilidagi leksemasining ma'nosiga muvofiq keladi. Frazema tarkibidagi "saxiy" ma'nosini bildiruvchi **alçaq** so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida ishlatilmaydi.

Bajat hukmiñä koz frazemasini shaxsning e'tiqodi, diniy qarashlari bilan bog'liq tushunchani aks ettiradi: *Bajat hukmiñä koz qamuy işlärig, özi kelsä etlür açar ej tirig* / Hamma ishni Xudo hukmiga havola qil, kezi kelsa bitadi, (uni o'zi) hal etadi, ey tirik / (QBN 178a) [Dadaboyev, 2018]. **Aç II =** (turkiy) hal qilmoq, yechmoq. Frazemaning so'zma-so'z ifodasi "Olloh bilguchi, ko'rguchi" degan ma'noga teng keladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu tushuncha "**Olloh hukmiga havola**", "**Olloh bilguchi**", "**Xudo xohlasa**" undov birikmalari bilan ifodalanadi.

Bojun ber qazaqa frazemasini "taqdirga tan bermoq" ma'nosida kelgan: *Negü kelsä tapla kör edgü esiz, bojun ber qazaqa köni tut aäiz* / Yaxshimi, yomonmi, nimaiki boshingga tushsa, rozi bo'l, taqdirga tan ber, rost so'zli bo'l (QBK 687) [Dadaboyev, 2018]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'yin bermoq qo'shma fe'li "**yon bermoq**", "**yon bosmoq**", "**rozi bo'lmoq**", "**qabul qilmoq**" ma'nolari ishlatiladi. *Bojun ber qazaqa yoki qazoga bo'yin bermoq ishlatilmaydi.* Ushbu frazema ifodalagan ma'no taqdirga tan bermoq frazemasini bilan ifodalanadi.



Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, frazemalar komponentlarini shakllanishida somatik frazemalarning o‘ziga xos o‘rni mavjud. “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanilgan frazemalarda somatik komponentlarni miqdorining ko‘pligi tilning tarixiy ijtimoiy muhit bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Tarixan insonlar har bir fikrni inson a‘zolari bilan bog‘lagan holda fikr bildirishgan. Bu holat esa turg‘un birikmalarni yuzaga kelishiga olib kelgan. Somatik frazemalar komponentlari asosida yuzaga kelgan frazemalar fikrni yanada kuchaytirib berishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dadaboyev H., Xolmuradova M. “Qutadg‘u bilig”dagi so‘zlarning o‘zbekcha-inglizcha-ruscha izohli lug‘ati. –Toshkent, 2018.
2. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Ҳозирги ўзбек тилига табдил қилувчи Қ.Каримов).–Тошкент, 1972. – 965 б.
3. Тўхлиев Б. Вопросы поэтики “Кутадгу билиг” Юсуфа Хос Хаджиба.–Ташкент, 2004.
4. Xolmanova Z. Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi/ “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi konferensiya materiallari. – Toshkent, 2025. –B.289.
5. Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. –Тошкент, 2019. –160 б.
6. Abdullayeva.V. “Qutadg‘u bilig”dagi frazemalarning seantik tasnifi// Til va adabiyot.uz,2025-yil,iyul,13-son.
7. Abdullayeva.V. “Qutadg‘u bilig” asari frazemalarning fuksional- semantik tadqiqi //UZA-O‘zbekiston Milliy axborot agentligi,electron jurnal 2025-yil,iyul 7-(69)soni.
8. Abdullayeva.V. Structural-semantik features of phrases expressing the mental state of a person in the work “Kutadgu bilig”
- 9.Abdulayeva. V. “Qutadg‘u bilig” asaridagi fremalarning semantic xususiyatlari// Til va adabiyot.uz,2025-yil,fevral,3-son.
10. Abdullayeva.V. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining til xususiyatlari, unda frazeologik iboralarni qo‘llanilishi tadqiqi//International journa of scientific researchers, <https://wordlyknowlwdgw.uz>. Volume 3, issue 1, 2023,49-bet.
- 11.Abdullayeva.V. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida so‘z qo‘llash va husnixat bilan yozish foydalari haqida//Iqro-jurnal iqro – <https://wordlyknowledge.uz>.volume 8, issue2,2024 issn: 2181– 4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245,SJIF– 5,431
- 12.Abdullayeva.V.Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asar matnida frazeologiyalarni qo‘llanilishi. International journa of scientific researchers, <https://wordlyknowlwdgw.uz>. Volume 2, issue 1, 2023,313-bet



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She‘riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta‘siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqida	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba‘zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92
<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi	98



	funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O'tkir Hoshimov asarlarida so'z birikmasining turlari O'tkir Hoshimov asarlarida so'z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma'no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So'z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasasi	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning "Sudxo'ring o'limi" qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she'riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g'oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o'rganishda til va madaniyatning o'rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O'zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O'zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra'no</i>	Kichraytirish qo'shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidadxon</i>	"Fayzining amakisi" hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177
<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181



<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik vositalarning o'rni	274



<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта изучения узбекского языка как второго	361



<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiya bilan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443
<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450



<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалья: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581
<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini:	584



	ingliz va o'zbek tillari misolida	
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyeva Dilafrö 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obyektı sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Görge Bay)	711



<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kişi müraciət formalarinin üslubi, lingvistik və psixolingvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774
<i>Abdullayeva Vazira</i>	“Qutadg'u bilig”dagi somatik frazemalarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati	777